Совершенствование порядка расчёта и взимания НДС в узбекистане: аналитический подход	860
Бисенбаев Шарьяр Куанишбай ули	
Mintaqaviy iqtisodiyotda inson kapitalini raqamli transformatsiyalash masalalari	864
Yusubboeva Dinora Qudrat qizi	
Iqlim o'zgarishlari va rekreatsiya turizmining kelajagi: muammolar va yechimlar	870
Shaymanova Nigora Yusupovna	
Sirdaryo viloyatining turizm imkoniyatlari va o'ziga xos turizm resurslari	875
Tursunova Gulmira Rabbonovna	
Samarqand viloyatida investitsion-innovatsion faollikni oshirish holati va investitsiyalarning tarkibiy xususiyatlari	883
Bektemirov Abdumalik Bektemirovich, Axrorov Abbos Aslamjon o'g'li	
Global innovatsion indekslar va o'zbekiston: rivojlanish yo'nalishlari va bosqichlari	889
Bekmurodova Gavhar Adham qizi	



SAMARQAND VILOYATIDA INVESTITSION-INNOVATSION FAOLLIKNI OSHIRISH HOLATI VA INVESTITSIYALARNING TARKIBIY XUSUSIYATLARI

Bektemirov Abdumalik Bektemirovich

SamISI i.f.d., professor

abdumalikbektemirov.57@gmail.com

Axrоров Аббос Асламжон о'g'li

SamISI magistri

Annotatsiya: Ushbu ilmiy ishda Samarqand viloyatida so'nggi yillarda investitsion va innovatsion faollikning oshishi, investitsiyalarning tarmoqlar va manbalar kesimida yuz berayotgan tarkibiy o'zgarishlari hamda iqtisodiyotning turli sohalarida olib borilayotgan islohotlar chuqur tahlil etilgan. Hududda amalga oshirilayotgan investitsion loyihalar, ayniqsa yashil energetika, sanoat va turizm tarmoqlariga yo'naltirilgan sarmoyalar iqtisodiy o'sishning asosiy harakatlantiruvchi omili sifatida baholangan. Tahlil natijalari asosida samarali investitsion siyosat yuritish va innovatsion muhitni shakllantirish bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: investitsion faollik, innovatsion rivojlanish, tarkibiy tahlil, yashil energetika, investitsion muhit, hududiy iqtisodiyot, iqtisodiy diversifikatsiya.

Abstract: This scientific paper presents a comprehensive analysis of the recent increase in investment and innovation activity in the Samarkand region, focusing on the structural transformation of investments by sectors and sources, as well as the reforms being carried out in various areas of the economy. Investment projects implemented in the region — particularly those aimed at green energy, industry, and tourism — are evaluated as the primary driving force behind economic growth. Based on the findings, practical recommendations have been developed for pursuing an effective investment policy and fostering an innovative environment.

Key words: investment activity, innovative development, structural analysis, green energy, investment environment, regional economy, economic diversification.

Аннотация: В данной научной работе представлен глубокий анализ роста инвестиционной и инновационной активности в Самаркандской области за последние годы, структурных изменений инвестиций по отраслям и источникам, а также проводимых реформ в различных секторах экономики. Инвестиционные проекты, реализуемые в регионе, особенно вложения в зеленую энергетику, промышленность и туризм, рассматриваются как основной движущий фактор экономического роста. На основе анализа разработаны практические предложения по проведению эффективной инвестиционной политики и формированию инновационной среды.

Ключевые слова: инвестиционная активность, инновационное развитие, структурный анализ, зеленая энергетика, инвестиционная среда, региональная экономика, диверсификация экономики.

KIRISH

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu islohotlarning markazida investitsion va innovatsion faoliyatni rag'batlantirish, iqtisodiyotni modernizatsiyalash hamda yangi texnologiyalar asosida ishlab chiqarish quvvatlarini rivojlantirish masalalari turadi. Jumladan, hududlar kesimida hududiy investitsion siyosatni takomillashtirish va ularni raqobatbardosh iqtisodiy makonga aylantirish bugungi kunning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi.



Samarqand viloyati — respublikaning tarixiy, madaniy va iqtisodiy markazlaridan biri bo'lib, so'nggi yillarda ushbu hududda investitsiyalarning hajmi, ularning tarkibiy taqsimoti va manbalarida muhim o'zgarishlar kuzatilmoqda. Viloyatning geoiqtisodiy joylashuvi, transport-logistika imkoniyatlari, ishchi kuchining mavjudligi va turizm salohiyati uni ichki va tashqi investorlar uchun jozibador mintaqaga aylantirmoqda.

Shu bilan birga, investitsion faoliyat samaradorligini ta'minlashda innovatsion texnologiyalarni joriy etish, ilmiy-texnikaviy salohiyatdan to'liq foydalanish hamda yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarishga o'tish alohida ahamiyat kasb etadi. Bu esa nafaqat iqtisodiy o'sish omili, balki raqobatbardoshlik va eksport salohiyatining oshishiga xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Investitsion va innovatsion faollik iqtisodiy rivojlanishning strategik yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Shu bois, bu yo'nalishda olib borilayotgan ilmiy izlanishlar iqtisodiy nazariya, hududiy rivojlanish, innovatsiyalar iqtisodiyoti va strategik boshqaruv kabi fanlar doirasida keng qamrovda olib borilmoqda. mavzuning murakkabligi va ko'p qirrali xususiyati uni nazariy va amaliy jihatdan chuqur o'rganishni taqozo etadi.

Milliy miqyosda olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda, asosan, investitsiyalarning hududiy tarkibi va ularning samaradorligi masalalari markaziy o'rinni egallaydi. Jumladan, iqtisod fanlari doktori R.J. Qosimovning ta'kidlashicha, "hududiy investitsion muhitni rivojlantirishda tarmoq infratuzilmasining rivojlanganlik darajasi, resurs ta'minoti va boshqaruv mexanizmlarining mosligi muhim omillardan biridir" [1]. Muallif, ayniqsa, viloyatlar kesimida investitsiyalarning tarkibiy tahlilini amalga oshirishni ularning raqobatbardoshligini baholashning asosiy sharti deb hisoblaydi.

Iqtisodchi D.M. Jo'rayev o'z tadqiqotlarida innovatsion faoliyatni kuchaytirish orqali investitsiyalarning samaradorligini oshirishga alohida urg'u beradi. Uning fikricha, "nafaqat investitsiyalar hajmini oshirish, balki ularning texnologik tarkibini modernizatsiyalash ham hududiy iqtisodiy rivojlanishda hal qiluvchi rol o'ynaydi" [2].

Xalqaro adabiyotlarda ham investitsion-innovatsion faollik masalalari keng yoritilgan. Masalan, mashhur iqtisodchi P. Krugmanning hududiy iqtisodiyotga oid tadqiqotlarida investitsiyalar oqimi, ularning jamlanish zonolari, transport-logistika imkoniyatlari va mehnat bozorining holati o'zaro bog'liqlikda tahlil etiladi. Krugman fikricha, "investitsiyalar, odatda, yuqori innovatsion daraja va past xarajatli logistika tizimlari mavjud bo'lgan klasterlashgan hududlarga yo'naltiriladi" [3].

Mahalliy tadqiqotlar orasida T. Mahmudov, S. G'ulomov, A. Abdurahmonov, Z. Murodova va boshqalarning ilmiy maqola va monografiyalarida innovatsion faoliyatni regionlar kesimida rivojlantirish, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining samaradorligini baholash, xususan Samarqand viloyatida innovatsion infratuzilmaning rivojlanish holati yoritilgan [4]. Z. Murodova o'z tadqiqotlarida Samarqand viloyatida texnoparklar va kichik innovatsion firmalarning shakllanishi hamda faoliyati bo'yicha amaliy takliflar bildirgan [5].

Umuman olganda, adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, investitsion-innovatsion faollikni oshirish uchun faqat mablag' jalb etish emas, balki ularning samarali taqsimlanishini ta'minlash, innovatsion faoliyat bilan uyg'unligini kuchaytirish, hududiy infratuzilmaning rivojlanganlik darajasi hamda mahalliy xususiyatlarni hisobga olgan strategik yondashuv zarur. Bu esa Samarqand viloyatida olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar va sarmoya siyosatini tahliliy qayta ko'rib chiqish va amaliy takliflar ishlab chiqishni taqozo etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda Samarqand viloyatining investitsion-innovatsion salohiyati, uning tarkibiy xususiyatlari va rivojlanish omillari tizimli yondashuv asosida o'rganildi. Tadqiqotning metodologik asosini iqtisodiy tahlil, hududiy iqtisodiyot, innovatsiyalar nazariyasi, modernizatsiya jarayonlari hamda investitsion faoliyatni strategik boshqarishga doir ilg'or ilmiy yondashuvlar tashkil etdi.

Tadqiqot davomida tizimli yondashuv, statistik tahlil, solishtirma (komparativ) tahlil, gipotezali yondashuv, grafik va jadval usullari, shuningdek, ekspert baholash metodlaridan keng foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyoti tarkibiy jihatdan turli tarmoqlardan iborat bo'lib, ularning har biri mamlakatning makroiqtisodiy barqarorligini ta'minlash, ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etish hamda aholining turmush darajasini oshirishda muhim o'rin tutadi.

Bugungi kunda mamlakat iqtisodiyotining asosiy tarmoqlari quyidagilardan iborat:

- sanoat;
- qishloq xo'jaligi;
- xizmat ko'rsatish sohasi;



transport va logistika;
axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT);
turizm;
qurilish;
energetika.

1-jadval. O'zbekiston iqtisodiyotining asosiy tarmoqlari bo'yicha YalMdagi ulushi (%).

Tarmoq nomi	2020	2021	2022	2023	2024
Sanoat	23.5	24.1	25.4	26.1	26.5
Qishloq xo'jaligi	27.2	26.5	25.1	24.3	23.8
Xizmat ko'rsatish sohasi	39.0	40.2	41.7	43.4	44.1
Transport va logistika	5.6	6.2	6.5	6.8	7.1
Energetika	2.9	3.1	3.3	3.6	3.8
Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT)	1.8	2.0	2.3	2.6	2.9
Turizm	1.0	1.3	1.5	1.8	2.1
Qurilish	5.0	5.3	5.8	6.2	6.6

Ushbu tarmoqlar o'zaro uzviy bog'langan bo'lib, har birining rivoji mamlakat iqtisodiy o'sishining tarkibiy asosini tashkil etadi.

Sanoat

Sanoat sohasi O'zbekiston iqtisodiyotining yetakchi tarmoqlaridan biri hisoblanib, yalpi ichki mahsulot (YalM)da muhim ulushga ega. 2020–2024-yillar davomida sanoat tarmog'ining YalMdagi ulushi o'rtacha 28–30 foiz atrofida bo'lgan. Eng yirik sanoat yo'nalishlariga quyidagilar kiradi: neft va gaz qazib olish, kimyo va farmatsevtika, mashinasozlik, metallurgiya, yengil sanoat hamda oziq-ovqat sanoati.

Samarqand viloyati misolida sanoat tarmog'i bo'yicha quyidagi tendensiyalar kuzatilgan:

2020–2024-yillarda Samarqand viloyatidagi sanoatga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi ikki baravarga ortdi, bu esa viloyatning sanoat salohiyati sezilarli darajada oshganini ko'rsatadi.

2023-yil yanvar–dekabr oylarida sanoatdagi o'sish darajasi 107,6 foizni tashkil etib, 2022-yildagi ko'rsatkichga nisbatan ancha yuqori natijaga erishildi.

2020–2021-yillarda Urgut erkin iqtisodiy zonasi doirasida umumiy qiymati 178 million AQSH dollariga teng 24 ta loyiha amalga oshirilib, 2 400 dan ortiq yangi ish o'rinlari yaratildi.

2021–2023-yillarda 42 ta sanoat klasteri shakllantirildi. Tekstil, oziq-ovqat, elektrotexnika va qurilish materiallari yo'nalishlarida 57 ta innovatsion loyiha asosida ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi.

Urgut tumanidagi EIZ hududida 49 loyiha orqali jami 272 million dollar sarmoya o'zlashtirilib, 3 300 dan ortiq ish o'рни yaratilgan.

Kichik sanoat zonalarida 57 ta loyiha uchun 453,4 milliard so'm sarmoya yo'naltirilib, 2 000 dan ortiq ish o'рни tashkil etish rejalashtirilgan.

2023-yil holatiga ko'ra, viloyat sanoatiga kiritilgan investitsiyalarning qariyb 80 foizi xorijiy manbalardan shakllangan. Tog'-kon sanoatida bu ko'rsatkich ayniqsa yuqori bo'lgan.

Qishloq xo'jaligi

Qishloq xo'jaligi O'zbekiston iqtisodiy barqarorligining asosiy tayanchlaridan biri hisoblanadi. 2024-yil yakunlariga ko'ra, ushbu tarmoqda ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 410 trillion so'mni tashkil etdi. Asosiy yo'nalishlar — g'alla yetishtirish, paxtachilik, bog'dorchilik, chorvachilik va uzumchilikdir.

2020-yilda qishloq xo'jaligiga yo'naltirilgan investitsiyalar 7,2 trillion so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilda bu ko'rsatkich 13,8 trillion so'mga yetdi.

2024-yil holatiga ko'ra, tarmoq YalMda 24,7 foiz ulushga ega bo'lib, umumiy bandlikning 25 foizga yaqinini ta'minlamogda.

2023-yil yakunida Samarqand viloyatida qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi 36 373,6 trillion so'mga yetib, 2022-yilga nisbatan 3 foizga o'sdi.

2022-yil dekabr yakunida 24 652,2 trillion so'mlik qo'shilgan qiymat yaratilgan bo'lib, yillik o'sish 3,6 foizni tashkil etdi.

Viloyat yalpi hududiy mahsulotida qishloq xo'jaligi, o'rmon va baliqchilik sohasi ulushi 40,5 foiz bo'lib, bu respublika miqyosidagi eng yuqori ko'rsatkichlardan biridir.

2024-yilda 282 ta fermer xo'jaligi 100 sentnerdan yuqori, 770 tasi 90–100 sentner, 3 175 tasi 70–90 sentner hosilga erishdi.



Yil davomida 20 ming gektar yangi yer maydoni o'zlashtirilib, 24,7 ming ish o'rni yaratish rejalashtirildi.

"Metin Group Impex" MChJ tomonidan 1 027 gektar, "Sarikul Mega Agro" tomonidan esa 1 450 gektar yerda zamonaviy, jumladan, tomchilatib sug'orish texnologiyalari joriy etildi.

2024-yil birinchi yarmida 5,6 ming gektar yangi bog' va 4,2 ming gektar tokzor barpo etildi.

Xulosa: Samarqand viloyatida qishloq xo'jaligi tarmog'i investitsiyalarni faol jalb qilmoqda. Sug'orish infratuzilmasining modernizatsiyasi, yer maydonlarini kengaytirish, eksport salohiyatini oshirish va texnologik yangilanishlar orqali viloyat iqtisodiy barqarorligini ta'minlashga xizmat qilmoqda. 2023–2024-yillarda BMT va Osiyo Taraqqiyot Banki ko'magida 350 million AQSH dollarlik loyihalar amalga oshirilgan.

Xizmat ko'rsatish sohasi

2024-yilda Samarqand viloyatida asosiy kapitalga yo'naltirilgan jami 29,65 trillion so'm investitsiyaning katta qismi xizmatlar sohasiga qaratildi. 2023-yilning birinchi yarmida bu ko'rsatkich 12,2 trillion so'mni tashkil etgan bo'lib, investitsiyalarning 65,5 foizi yangi qurilishlar, transport va turizm bilan bog'liq xizmatlarga yo'naltirilgan.

2024-yil oxiriga kelib, xizmat ko'rsatish sohasiga yo'naltirilgan investitsiyalar 2023-yilga nisbatan 108,1 foizga o'sgan.

Transport va logistika

2020–2024-yillarda yo'l va jamoat transporti infratuzilmasiga qaratilgan investitsiyalar modernizatsiyalash jarayonlarini jadallashtirdi.

2022-yilda Samarqand xalqaro aeroportiga yangi terminal qurilib, yo'lovchi sig'imi yillik 1 milliondan 2 milliongacha oshirildi.

2023-yilda 100 ta elektrobus xarid qilinib, 40 ta yangi yo'nalish ochildi, yo'lovchilar soni yiliga 114 million kishiga yetkazildi.

2023-yil oxiriga kelib, viloyatdagi umumiy avtomobil yo'llari uzunligi 4 100 km ga yetdi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT)

Rasmiy statistikada alohida bo'lmasa-da, 2024-yil investitsiya strukturasi tahlilida telefon va axborot yo'nalishlariga 14,6 foiz miqdorida sarmoya yo'naltirilgani qayd etilgan. Bu esa mobil aloqa, internet tarmoqlari va "Smart City" loyihalarini rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, aeroportda e-Gates tizimi joriy etilgan.

Turizm

Samarqand viloyati o'zining boy tarixiy va madaniy merosi tufayli turizm sohasida katta salohiyatga ega. 2024-yilda "Samarqand markaziy turizm zonasi"ni rivojlantirish uchun 100 million dollarlik investitsiya loyihasi rejalashtirilgan. 2023-yilda aeroportda 1,01 million yo'lovchi xizmat ko'rsatishdan foydalangan va xalqaro parvozlar soni oshgan.

Qurilish

Qurilish sohasiga yo'naltirilgan investitsiyalar 2023-yilda 29,65 trln so'mni tashkil etib, asosiy kapitalning 44,2 foiziga (11,8 trln so'm) to'g'ri keldi. 2022-yilda bu ko'rsatkich 60,9 foizni, 2023-yilning yanvar–iyun oylarida esa 65,5 foizni tashkil etgan bo'lib, yangi uy-joylar, ofis binolari va yo'l infratuzilmasining faol rivojlanishi kuzatildi. Ushbu tendensiya hududiy infratuzilmani modernizatsiya qilish hamda investitsion faoliyatni kuchaytirishga xizmat qilmoqda.

2020–2024-yillar davomida Samarqand viloyatida xizmat ko'rsatish, transport-logistika, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT), turizm va qurilish sektorlariga yo'naltirilgan investitsiyalar orqali hududiy iqtisodiyotda diversifikatsiya ta'minlandi va infratuzilma yangilandi. Natijada xizmat ko'rsatish va qurilish maydonlari kengaydi, transport va turizm infratuzilmasi rivojlandi hamda AKT sohasida elektron tizimlar va internet infratuzilmasi mustahkamlandi.

Energetika

Energetika sektori iqtisodiy o'sishning muhim infratuzilma yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Mazkur sohada gaz, neft va elektr energiyasini ishlab chiqarish hamda taqsimlash faoliyatlari olib boriladi. So'nggi yillarda qayta tiklanadigan energiya manbalarini (quyosh va shamol) rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

2024-yilga kelib, qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish darajasi 11,5 foizga yetdi. Energetika sohasiga yo'naltirilgan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi 1,1 milliard AQSH dollarini tashkil etdi.

Samarqand viloyatida yashil energiya sohasiga yo'naltirilayotgan investitsiyalar hajmining ortib borishini bir necha muhim omillar bilan izohlash mumkin:

Normativ-huquqiy asoslar: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 9-martdagi PQ–100-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Yashil energiyani rivojlantirish strategiyasi – 2030" hujjati asosida, mamlakatda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini keng joriy etish bo'yicha tizimli chora-tadbirlar belgilandi. Samarqand viloyati ushbu strategiya doirasida ustuvor hudud sifatida belgilangani hisobiga, bu sohada sarmoya hajmi ortmoqda.

Tabiyy-geografik afzalliklar: Viloyatning tabiiy iqlimi, xususan, yiliga 300 kundan ortiq quyoshli kunlarning mavjudligi, quyosh energiyasini samarali ishlab chiqarish uchun katta imkoniyat yaratadi. Shu asosda, 2022–



2024-yillar oralig'ida umumiy quvvati 440 MVt bo'lgan bir nechta quyosh elektr stansiyalari qurildi. Jumladan, 2023-yilda Birlashgan Arab Amirliklarining "Masdar" kompaniyasi tomonidan Samarqand tumanida 220 MVt quvvatli quyosh elektr stansiyasi ishga tushirildi.

Xalqaro moliyaviy institutlar ishtiroki: Iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish, karbon izi (carbon footprint)ni kamaytirish va ekologik xavfsizlikni ta'minlash xalqaro darajadagi ustuvor yo'nalishlardandir. Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki (IBRD), Osiyo taraqqiyot banki (OTB) kabi institutlar tomonidan Samarqand viloyatidagi yashil energiya loyihalari moliyalashtirilmoqda. Masalan, 2024-yilda OTB tomonidan quyosh panellari tizimini joriy etish uchun 50 million AQSH dollari ajratildi.

Imtiyozli soliq va bojxona siyosati: 2023-yilda qabul qilingan "Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish to'g'risida"gi qonun asosida, ushbu yo'nalishdagi loyiha ishtirokchilariga foyda solig'idan 10 yilgacha ozod etish, asbob-uskunalarni bojxona to'lovlarisiz olib kirish imkoniyatlari taqdim etildi. Bu holat investitsiyaviy muhitning jozibadorligini oshirdi.


Yangi ish o'rinlari va inson kapitali: Yashil energiya infratuzilmasining rivojlanishi yangi ish o'rinlarini yaratish, mahalliy mutaxassislarining salohiyatini oshirish va mintaqaviy bandlikni ta'minlashga xizmat qilmoqda. Bu holat mahalliy hokimiyatlar tomonidan sohani faol qo'llab-quvvatlashga turtki bermoqda.

Xulosa: Samarqand viloyatida yashil energiyaga doir amalga oshirilayotgan siyosat va investitsion islohotlar ekologik barqarorlikni ta'minlash, energiya mustaqilligini kuchaytirish va iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishga yo'naltirilgan. Ushbu omillar viloyatda qayta tiklanadigan energiya bozorining kengayishiga zamin yaratadi.

2-jadval. Samarqand viloyatida yashil energetika sohasiga yo'naltirilayotgan investitsiyalar hajmi

Yil	Jalb etilgan investitsiyalar (mlrd so'm)	Yaratilgan quvvat (MVt)	Ishlab chiqarilgan "yashil" energiya (mln kVt/soat)
2020	35,4	10	12,8
2021	112,7	35	49,2
2022	264,3	110	225,6
2023	548,1	220	470
2024	678,5	310	635,3

Samarqand viloyatida yashil energetika sohasiga yo'naltirilayotgan investitsiyalar hajmi yildan-yilga o'sib bormoqda. Bu esa o'z navbatida yashil energiya quvvatlari oshishini va elektr energiya ishlab chiqarish sohasida o'sish ortib borayotganligini kuzatishimiz mumkin.



1-rasm. Samarqand viloyatida yashil energetika sohasiga yo'naltirilayotgan investitsiyalar, yaratilayotgan quvvatlar va energiya ishlab chiqarishning 2019–2024-yillardagi o'zgarish dinamikasi

So'nggi yillarda yashil energetikaga bo'lgan e'tibor jahon miqyosida kuchaygani singari, O'zbekistonda, xususan Samarqand viloyatida ham ushbu yo'nalishdagi faoliyat jadal rivojlanmoqda. Diagrammada ko'rsatilganidek, 2020–2024-yillar oralig'ida viloyatda "yashil" energetika loyihalariga jalb etilgan investitsiyalar



hajmi, yaratilgan quvvat (megavatt hisobida) hamda ishlab chiqarilgan “yashil” energiya miqdori bosqichma-bosqich ortib borgan.

2020-yilda jalb etilgan investitsiyalar hajmi nisbatan kam — taxminan 50 mlrd so'm atrofida bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024-yilda qariyb 700 mlrd so'mga yetdi. Bu holat, bir tomondan, hukumat tomonidan berilayotgan imtiyozlar va kafolatlar, ikkinchi tomondan esa xususiy sektor va xalqaro moliya institutlarining ushbu yo'nalishga qiziqishi ortib borayotganini ko'rsatadi.

Yaratilgan quvvat miqdori ham izchil oshib borgan: 2020-yilda deyarli nolga teng bo'lgan elektr ishlab chiqarish quvvati 2024-yilga kelib 300 MVt dan oshdi. Bu asosan quyosh va shamol elektr stansiyalarining bosqichma-bosqich ishga tushirilishi bilan izohlanadi. Bunday o'sish energetik mustaqillikni ta'minlash, atrof-muhitga zarar yetkazmasdan energiya manbalarini diversifikatsiya qilishda muhim ahamiyatga ega.

Shuningdek, ishlab chiqarilgan “yashil” energiya hajmi ham sezilarli o'sishga erishdi: 2020-yildagi 20 mln kVt/soatlik ko'rsatkich 2024-yilda 650 mln kVt/soatga yetdi. Bu nafaqat yangi quvvatlarning ishga tushirilishi, balki mavjud infratuzilmaning samarali ishlatilayotganidan ham dalolat beradi.

Umuman olganda, mazkur dinamik tahlil Samarqand viloyatida yashil energetika sohasiga yo'naltirilayotgan investitsiyalarning nafaqat miqdoriy, balki sifat jihatidan ham jadal rivojlanayotganini ko'rsatadi. Bu holat hududiy barqaror rivojlanish, energetik xavfsizlik va ekologik muvozanatni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Bunga quyidagilar asosiy sabab bo'la oladi:

xorijiy investorlar uchun yaratilgan qulay huquqiy muhit;

energetika xavfsizligini ta'minlashga bo'lgan ehtiyoj;

viloyatning tabiiy resurs imkoniyatlari (quyosh nurlanishi va shamol zonalari);

uglerod chiqindilarini kamaytirish bo'yicha xalqaro majburiyatlar.

Zarafshon quyosh stansiyasi kabi yirik loyihalar nafaqat Samarqand viloyatini, balki butun mintaqani barqaror energiya bilan ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Kichik biogaz inshootlari esa mahalliy miqyosda mavjud resurslardan samarali foydalanish va energiya mustaqilligiga erishishda muhim vosita bo'lib xizmat qilmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Samarqand viloyatida so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli iqtisodiy islohotlar va hududiy rivojlanish siyosati doirasida investitsion va innovatsion faollik sezilarli darajada oshgani kuzatilmoqda. Viloyatning geoiqtisodiy joylashuvi, transport-logistika infratuzilmasining takomillashuvi, mavjud resurs bazasi va mehnat bozorining imkoniyatlari uni ichki va tashqi investorlar uchun jozibador hududga aylantirmoqda.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, viloyatda investitsiyalar faqat hajm jihatidan emas, balki tarkibiy va tarmoq kesimida ham diversifikatsiyalanmoqda. Ayniqsa, sanoat, qishloq xo'jaligi, xizmatlar sohasi, yashil energetika va qurilish tarmoqlarida investitsion faollik yuqori bo'lib, ularning har biri o'ziga xos rivojlanish dinamikasiga ega. Innovatsion faoliyatning kuchayishi, texnoparklar va sanoat zonalari faoliyatining kengayishi iqtisodiy o'sish sur'atlarini jadallashtirishga xizmat qilmoqda.

Shuningdek, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirishga qaratilgan sarmoyalar ekologik barqarorlikni ta'minlash, energiya mustaqilligini kuchaytirish va yangi texnologiyalarni joriy etish orqali viloyatning uzoq muddatli raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qilmoqda. Umuman olganda, Samarqand viloyatida investitsion-innovatsion faollikni oshirish strategiyasi mintaqaviy iqtisodiy siyosatning samarali va kompleks yondashuvlar asosida olib borilayotganini anglatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Qosimov R. J. (2021). Hududiy investitsion muhit va raqobatbardoshlik. Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti.
2. Jo'rayev D. M. (2020). “Innovatsion rivojlanish sharoitida investitsiyalarning samaradorligi”. Ilmiy maqola, Iqtisodiy tadqiqotlar jurnali, №4.
3. Krugman P. (1991). Geography and Trade. Cambridge: MIT Press.
4. Mahmudov T., G'ulomov S., Abdurahmonov A. (2022). Innovatsiyalar va hududiy rivojlanish. Toshkent: Fan va texnologiyalar nashriyoti.
5. Murodova Z. (2023). Samarqand viloyatida texnoparklar faoliyatining takomillashtirish yo'llari. Monografiya. Samarqand.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Qarori PQ-100 (2023-03-09). “Yashil energiyani rivojlantirish strategiyasi – 2030”.
7. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi (2020-2024-yillar). Rasmiy statistik byulletenlar. www.stat.uz
8. Asian Development Bank (2024). Uzbekistan: Renewable Energy Investment Review. Manila: ADB Publications.
9. World Bank (2023). Uzbekistan Country Economic Update. Washington, D.C.: World Bank Group.
10. O'zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi rasmiy ma'lumotlari (2022-2024-yillar). www.minenergy.uz



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
